

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "BABY SHOWER" LEKSIK BIRLIGINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI

Ishqobilova Hulkar

O'zbekiston davlat Juhon tillati universiteti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.53885/edires.2024.04.2.032>

Annotatsiya. O'rganilayotgan milliy qadriyatni ifodalovchi oila konsepti, ko'plab ijobjiy hususiyatlarni o'z ichiga oladi va ular o'z navbatida tilda milliy qadriyat sifatida namoyon bo'ladi. Konseptning o'zi esa bir qator so'z yasovchi va shakl yasovchi qo'shimchalar bilan birikib yangi so'z hosil qiladi. Maqolada asarlar bilan bir qatorda "oila" konseptiga aloqador ingliz tilidagi "Baby shower" leksik birligi uning kelib chiqishi, ma'nosi, o'zbek tilidagi ekvivalenti tahlil qilingan va lug'atlarda "family" konseptining ma'nolari ko'rib chiqilgan.

Kalitso'zlar: oila, milliy qadriyatlar, ma'naviy qadriyatlar, ma'no maydoni, paremiologik birliklar, funksional-strukturaviy hususiyatlari, konsept, leksema, leksik birlik.

COMPARATIVE ANALYSIS OF THE LEXICAL UNIT «BABY SHOWER» IN ENGLISH AND UZBEKI

Ishqabilova Hulkar

teacher of the Uzbekistan State World University

Abstract. The family lexeme, which represents the studied national value, contains many positive features, and they, in turn, are manifested in the language as a national value. The lexeme itself combines with a number of word-forming and form-forming suffixes to form a new word. Along with the works, the English lexical unit «Baby shower» related to the concept of «family» is analyzed in the article, its origin, meaning, its equivalent in Uzbek, and the meanings of the concept of «family» in dictionaries are considered.

Key words: family, national values, spiritual values, semantic field, paremiological units, functional-structural features, concept, lexeme, lexical unit.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЛЕКСИЧЕСКОЙ ЕДИНИЦЫ «BABY SHOWER» В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Ишқобилова Ҳулкар,

преподаватель Узбекского государственного университета мира

Аннотация. Лексема семьи, репрезентирующая изучаемую национальную ценность, содержит множество положительных черт, а они, в свою очередь, проявляются в языке как национальная ценность. Сама лексема соединяется с рядом словообразовательных и формообразующих суффиксов, образуя новое слово. Наряду с работами в статье анализируется английская лексическая единица «Baby Shower», относящаяся к понятию «семья», ее происхождение, значение, ее эквивалент в узбекском языке, а также значения понятия «семья» в словарях. обдуманный.

Ключевые слова: семья, национальные ценности, духовные ценности, смысловое поле, паремиологические единицы, функционально-структурные особенности, концепт, лексема, лексическая единица.

Ingliz xalqining ko'zga ko'ringan milliy qadriyatlardan biri bu "Baby shower", ya'ni "Yangi tug'ilgan bolalarni qutlash" deb nomlanadi. Aslida baby so'zining bir nechta ma'nolari lug'atlarda berib o'tilgan. Masalan,

1. yosh bola/hayvon
2. eng yosh a'zo

3. zaif yoki ahmoq bo‘lish
 4. sizni qiziqtirgan loyiha
 5. sb you love kabi ko‘plab ma’nolari mavjud. Lekin aynan bu so‘z birikmasida uning birinchi, ya’ni yosh bola ma’nosini ishlatalmoqda. “Hali gapira olmaydigan va yura olmaydigan juda yosh bola. Etaricha katta bo’lgan chaqaloq kichkintoydir: Bolani ushlab tursam bo’ladimi? Ularning qizi tug’ishini / farzand ko’rishini bilar edi, men chaqaloqni uyda tug’ishga umid qilaman. Farzandli bo‘lmoq/tug‘moq (=homilador bo‘l) U noyabr oyida bola tug’ishni kutmoqda”. [Macmillan inglizcha lug’ati, 2007, 91-bet]

Shower so‘zi ham ot so‘z turkumiga kiruvchi so‘z bo‘lib, ko‘plab ma’nolarga ega:

1. yuvish uchun
2. yomg‘ir davri
3. narsalarning massasi
4. ayol uchun bayram
5. odamlar guruhi kabi ma’nolari mavjud.

Ma’nolardan ko’rinib turibdiki, baby shower birikmasida so‘zning to’rtinchi ma’nosini: “[C] Amerika ayollari uchun do’stlari tomonidan uyuştirilgan ziyofat, ular unga sovg‘alar berishadi, chunki u yaqinda farzandli bo’ladi. yoki turmush qurish: [Macmillan English Dictionary, 2007, p. 1371]. Baby shower so‘zi esa hisob ichida kelganda Qo‘shma otlanib, unga shunday ta’rif beriladi “a ziyofat homilador ayol uchun beriladi, unga mehmonlar chaqaloq uchun sovg‘alar olib keladi. Misollar, oila a’zosi yoki qarindoshi tomonidan chaqaloq dushini o’tkazish ko‘plab an’anachilar tomonidan yomon shakl va o’z-o’ziga xizmat qilish sifatida ko’rildi «[www.dictionary.com/browse/baby-showers].

Bundan tashqari ham turli hil lug‘atlarda baby shower jumlasiga turlicha ta’riflar berib o’tilgan.

1. Tug’ilmagan chaqaloq uchun bayram.
2. Kimnidir hurmat qilish va sovg‘a qilish uchun o’tkaziladigan bazm.
3. Baby shower dastlab bo’lajak onaning birinchi chaqalog‘i uchun taklif qilingan.

Ammo bu an’ana oilaga barcha «yangi qo’shimchalar» uchun o’zgardi, chunki ularning barchasi mo”jizadir va sevgi va sovg‘alar bilan yog’ilishga loyiqdir.

4. Farzandli bo‘lmoqchi bo’lgan ayolga beriladigan ziyofat, bu kechada do’stlari unga chaqaloq uchun oldindan o’yinchoqlar beradi.

5. Ayolga turmushga chiqishi yoki farzand ko‘rishi oldidan o’tkaziladigan ziyofat, unga bo‘lajak uy-joy yoki chaqaloq uchun sovg‘alar berilganda.

6. An’anaga ko’ra, baby shower faqat oilaning birinchi farzandi uchun berilgan, ammo vaqt o’tishi bilan ularni keyingi yoki asrab olingan bolalarni o’tkazish odatiy holga aylangan. [community.babycenter.com/post/a32591803/baby. shower-ta’rif].

Bu atamaga Macmillan English Dictionaryda “ism [C] asosan amerikalik bolali bo‘lmoqchi bo’lgan ayol uchun ziyofat. Do’stlari unga chaqaloq uchun sovg‘alar berishadi» [Macmillan English Dictionary, 2007, p. 92].

Inglizlar hayotida bu milliy qadriyat chuqur tarixga ega. Baby shower atamasining kelib chiqishi shundan iboratki, “showered with gifts” ya’ni sovg‘alarga boy bo‘lmoq degan ma’noni beradi. Odatda, faqatgina oilada tug‘ilgan birinchi farzandgagina baby shower qilinadi va bazmga faqatgina ayollar taklif qilinadi.

Ba’zi bir mamlakatlarda bu udum chaqaloq ona qornidaligida nishonlanadi. Masalan, qadimgi greklar chaqaloq tug‘ilgandan keyin bayramni nishonlashadi. Qadimgi renessans davrida esa chaqaloqning tug‘ilishi afsonaviy voqeasi sifatida qaralgan. Asrlar o’tib esa insonlar turmush qurib farzand ko‘rishi hech qanday uyat yoki yomon narsa emasliklarini tushunib yetishdi va 1950- yillarga kelib bu narsaga milliy qadriyat sifatida qarala boshlandi. Hozirgi

kunda esa bu udum har millatda har xil ko‘rinish kasb etadi. Bu narsani uyat deb hisoblashgan.

Haqiqiy “baby shower” esa 1950-1960- yillarda boshlangan. Umumiyl olib qarasak, bu onani yangi tug‘ilgan chaqaloqqa kerak bo‘ladigan ehtiyojlarini qondirishdir. XXI-asrga kelib esa texnologiya rivoji sabab dunyoda ko‘plab o‘zgarishlar sodir bo‘la boshladi va bu o‘zgarish baby showerni ham chetlab o‘tmadi. Taklifnomalar va internet orqali yangi tug‘ilgan chaqaloqlarga atab har xil saytlar ochila boshlandi.

Masalan Kanadada ham bu tadbirga faqat ayollar taklif qilinar edi lekin texnologiya asri bu odatni ham o‘zgartirdi. Endi tadbirga nafaqat ayollar balki erkaklar ham qatnasha oladi. Ayniqsa ota bu tadbirdan chetda qolmaydi. Bangladeshda esa bu bazm sadh deb ataladi va u homiladorlikning yettinchi haftasida nishonlanadi. Chaqaloq tug‘ilgunicha ona o‘z otasinikida yashab turadi. Bu ham milliy qadriyatning bir ko‘rinishidir.

Xitoyda esa baby shower manyue deb ataladi va u bola tug‘ilgandan bir oydan so‘ng nishonlanadi. Rossiyada esa baby shower mavjud emas. Lekin hozirgi kunda yoshlari orasida tarqalib bormoqda. Serbiyada esa bu qadriyatga umuman boshqacha qarashadi. Ularda tug‘ilmagan chaqaloqqa hech qachon sovg‘a sotib olinmaydi. Agar tug‘ilmasdan sovg‘a sotib olinsa chaqaloq o‘ta hunuk bo‘lib tug‘iladi degan qarash mavjud. Agar tug‘ilmagan chaqaloq haqida birorta yaxshi so‘z aytilda esa chaqaloqning k o‘zlar shaytonnikidek bo‘lib qoladi deb o‘ylashar ekan. Shunday qilib ularda bazm cjaqaloq bir yoki uch yoshga t o‘lgandan keyin nishonlanadi va u Babine deb ataladi.

Bu odat Amerika Qo‘shma Shtatlarida ham huddi shunday nishonlanadi. Chaqaloq tug‘ilgandan keyin mehmonlarga taklifnomalar qarashadi va taklifnomalar oxiriga internetdan ochilgan sayt manzili yozib qo‘yiladi. Saytda esa chaqaloq uchun kerak bo‘ladigan narsalar ro‘yxati yozib qo‘yiladi. Mehmonlar bazmga tashrif buyurishdan oldin saytga kirib sovg‘alar ro‘yxatidan o‘zlar qurbi yetgan birorta sovg‘ani tanlashadi va uni bazm kuni o‘zi bilan olib boradi va yangi tug‘ilgan chaqaloqqa tortiq qiladi. Sovg‘a berish bilan bir qatorda ular birlari bo‘lgan mehrlarini ham ifoda etishadi va oradagi rishtalar mustahkamlanadi.

Uyga yangi mehmon kelishi nafaqat ona balki ota uchun ham o‘ta quvonchli voqeasi hisoblanadi va ular ham bu bayramni o‘zgacha shukuh bilan nishonlashadi. Ular ham o‘z do‘satlari, tengdoshlari bilan baliq oviga, biror sport o‘yinini tomosha qilishga borishadi. Go‘yoki shu yo‘l bilan ular do‘sini tabriklashadi. Britaniyada esa otalarning yig‘ilishi wetting the baby’s head deb ataladi. Bu bazmda esa ota farzandli bo‘lganini nishonlaydi. Bu udum 1950-1960- yillardan beri nishonlanib kelib hozirgi kunda qadriyat darajasiga ko‘tarilgan.

Shu bilan bir qatorda huddi o‘zbek tilida mavjud bo‘lganidek, ingliz oilasida ham mehmondo‘slik yuksak qadr topgan deya aytal olamiz. Faqat bu qadriyat ikki xalqda, ikki tilda turlicha namoyon bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda ular turlicha ko‘rinishga ega.

Aytish mumkinki, ularning ham ko‘zga ko‘rinib turgan milliy qadriyatlaridan biri bu “Sending thank you note after the party”, ya’ni “Bazmdan keyin rahmatnoma xati yuborish”dir. Bu narsa inglizlar hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurgan. Bazmga, yoki shunchaki mehmondorchilikka qancha odam tashrif buyurmasin, ular bazmdan keyin ikki, uch kun ichida alohida vaqt topib, mezbonga rahmatnoma xati yuborishadi. Shu bilan bir qatorda mehmon o‘z tarbiyasini ham namoyon qiladi. Rahmatnoma yuborish mezonning taklif qilganligi va uni mehmon qilganidan mammunligini bildirishning eng esda qolarli usulidir. Shunday qilib, ushbu “Sending thank you note after the party” jumlasida ingliz xalqining muhim milliy qadriyatlaridan biri aks etgan.

Xatning hajmi unchalik uzun b o‘lishi shart emas. Muhibi u samimiy va chin dildan aytigan b o‘lishi kerak. Quyida unga bir misol ko‘rib chiqamiz:

Dear Henry,

Thank you for inviting my family and I to celebrate your 60th birthday. We all had so much fun last night and Betty can not get over your barbecue. We hope that you had as much fun.

The dessert was detectable and the service was really good. I can’t believe you had a band

and they let us sing, that was too much fun for one night.

Again thank you for the great time.

Love,

Petty and family.

Ko‘rinib turibdiki, ingliz va o‘zbek tillarida qadriyat tushunchasi o‘z mazmun va hususiyatlariga ega va ular o‘sha xalq kundalik hayotining ajralmas qismiga aylanib qolgan. Qadriyatlarning o‘ziga hosligi ularning milliy bo‘yoq dorlikka ega ekanligini ko‘rsatadi. Ingliz va o‘zbek tillarida milliy qadriyatlar o‘z aksini turli xil so‘zlar, so‘z birikmlari va jumlalarda namoyon qiladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati.-Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 1978.
2. O‘zbek tili morfem lug‘ati./ A. G‘ulomov, A. N. Tixonov, R. Q o‘ng‘urov.-Toshkent: O‘qituvchi, 1977.-477 b.
3. Lee D. Cognitive Linguistics. An Introduction.-N.Y., 2002.
4. Pollack R. Signs of Life: The Language and Meaning of DNA.-London, 1994.